

01/08-09-14/2506596 - sonli
**KREDIT HISOBIGA XARID QILINAYOTGAN MULK (USKUNA, DASTGOH)LARNI SUG'URTA
QILISHNING KOMBINATSIYALASHGAN
BOSH SHARTNOMASI**
(onlayn rejimda)

Toshkent shahri

“03”- Iyul 2025-yil

O'zbekiston Respublikasi sug'urta faoliyatini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan 2022-yil 26-dekabrda berilgan SF 00056-sonli litsenziya asosida faoliyat yurituvchi “**TRUST INSURANCE**” AJ, keyingi o'rinlarda “**Sug'urtalovchi**” deb nomlanuvchi, Ustav asosida faoliyat yurituvchi Bosh direktor J.A.Xolmirzaev bir tomondan shuningdek, AT “**ALOQABANK**” keyingi o'rinlarda “**Naf oluvchi**” deb nomlanuvchi, Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv Raisi K.N.Irisbekova ikkinchi tomondan birgalikda “**Tomonlar**”, alohida hollarda “**Tomon**” deb yuritiladi, ushbu Kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh)larni sug'urta qilishning kombinatsiyalashgan Bosh shartnomasini (keyingi o'rinlarda “**Shartnoma**” deb yuritiladi) quyidagi shartlar bo'yicha tuzdilar:

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Shartnomada nazarda tutilgan shartlar va/yoki qo'shimcha kelishilgan shartlar, ushbu Sug'urta shartnomasining ajralmas qismi bo'lgan istisnolar va ilovalarga muvofiq sug'urta tovonini/ta'minotini amalga oshirish majburiyatini olgan holda kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh)larni sug'urtalash mazkur Shartnomaning predmeti bo'lib, Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini mazkur Shartnomada belgilangan miqdor va shartlarda to'laganda, Sug'urtalovchi Shartnomada keltirilgan sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urta qildiruvchiga, Naf oluvchiga sug'urta tovonini mazkur Shartnomada belgilangan tartibda va hajmda qoplashni o'z zimmasiga oladi.

1.2. Shartnomada ko'rsatilgan mulkka (sug'urta predmetiga) egalik qilish, undan foydalanish, uni tasarruf etish bilan bog'liq bo'lgan Naf oluvchining ushbu Shartnomada nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda uning yo'qotilishi (nobud bo'lishi) yoki shikastlanishi oqibatida Naf oluvchining mulkiy manfaatlarini mazkur Shartnomaning sug'urta ob'ekti hisoblanadi.

1.3. Sug'urta qildiruvchi mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq ishlab chiqilgan ommaviy oferta shaklidagi shartnoma (1-ilova) bilan tanishib rozilik bildirgan holda ommaviy oferta shaklidagi elektron arizani (2-ilova) sug'urtalovchining dasturiy ta'minotiga yuborish orqali shartnoma tuzadi.

2. ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Shartnomada qo'llanilgan asosiy tushunchalar quyidagi ma'nolarga ega:

Sug'urta qildiruvchi (qarz oluvchi) – kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh)ni xarid qiluvchi hamda Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnoma/polisini tuzgan, ariza-anketada kelishilgan sug'urta mukofotini to'lovchi va Sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabatlariga kiruvchi yuridik yoki jismoniy shaxs.

Sug'urta polisi - mazkur sug'urta shartnomasining ariza-anketasiga asosan Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langandan so'ng beriladigan, sug'urta shartnomasining tuzilganligini va sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat.

Sug'urta summasi - kredit shartnomasi bo'yicha kredit summasi qismiga teng bo'lgan pul mablag'lari miqdori, kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh) bo'yicha esa uning xarid qiymati miqdorida bo'lib, sug'urta hodisasi ro'y berganda Sug'urtalovchi majburiyati hajmining chegarasi hisoblanadi.

Sug'urta hodisasi - Sug'urta qildiruvchining kredit shartnomasi bo'yicha kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh) yetib kelganidan so'ng tegishli hujjati rasmiylashtirilib garovga qo'yilguniga qadar grafik bo'yicha kredit summasini so'ndirish bilan bog'liq pullik majburiyatini bajarishga qobiliyatsizligi va kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh)ga sug'urta shartnomasida keltirilgan xavflar natijasida yetkazilgan zararlar hisoblanadi.

Sug'urta qoplamasi – Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga sug'urta hodisasi ro'y berishi oqibatida yetkazilgan zararni Sug'urtalovchi tomonidan sug'urta summasi doirasida qoplab berilishi.

Sug'urta mukofoti – Sug'urta qildiruvchi tomonidan ariza-anketada kelishilgan muddat va shartlarda to'lab berishi shart bo'lgan sug'urta haqi.

Sug'urta muddati – sug'urta polisi bo'yicha sug'urta javobgarligining amal qilish davri.

Mulk (uskuna, dastgoh) – Mahalliy va xorijiy korxonalarda ishlab chiqarilgan va soz holatdagi mulk (uskuna, dastgoh, jihozlar, elektron qurilmalar va boshqalar) Ariza-anketada to'liq ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Shartsiz franshiza – Sug'urta qildiruvchi zararlarining ma'lum qismi bo'lib, uni qoplab berish bo'yicha Sug'urtalovchi javobgar bo'lmaydi. Shartsiz franshizada Sug'urtalovchining javobgarligi franshizaning summasi ayirilgan zararning miqdori bilan belgilanadi;

Kutish davri – shartnomada ko'rsatilgan to'lov sanasidan boshlab hisoblanadigan, sug'urta shartnomasida kelishilgan voqea natijasida sodir bo'lgan zararni qoplashgacha o'tishi lozim bo'lgan ketma-ket kalendar kunlari soni – 45 kun (kutish davri - qarz oluvchining olgan kreditini qaytara olmaslik javobgarligini sug'urta qilish tavakkalchiligi bo'yicha qo'llaniladi);

Ommaviy oferta shaklidagi elektron ariza (ariza-anketa) – Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi tomonidan taqdim etilgan sug'urta ob'ekti, Kredit shartnomasi hamda Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlar

bo'lib, ushbu ma'lumotlar Sug'urtalovchi tomonidan qabul qilingandan va sug'urta mukofoti to'langandan so'ng aniq bir Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchiga beriladigan sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan hujjat;

JFODLTMVOQQTM - jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirish;

Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (Yagona tizim) – manfaatdor vazirliklar va idoralarning axborot tizimlari va markaziy ma'lumotlar bazalari, jismoniy va yuridik shaxslar markaziy ma'lumotlar bazalari bilan integratsiyalashgan sug'urta bozori ma'lumotlarini hisobga olish va iste'molchilarga elektron sug'urta xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini ta'minlovchi yagona tizim.

3. SUG'URTA HODISALARI

3.1. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha quyidagi tavakkalchiliklar sug'urta qilinadi:

3.1.1. Sug'urta davri mobaynida quyida keltirilgan sabablarga ko'ra yuz bergan va Bankka o'z vaqtda to'lovlarni amalga oshirish majburiyatlarining buzilishiga sabab bo'lgan hodisalar:

a) Kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar jadvalida ko'rsatilgan to'lovlarni belgilangan muddatdan kechiktirish va summani 90 (to'qson) kalendar kundan ortiq muddatga kechiktirib to'lash (to'lamaslik);

b) Kredit shartnomasi bo'yicha to'lovlar jadvalida ko'rsatilgan to'lovlarni belgilangan muddatdan kechiktirish va Sug'urtalovchi tomonidan birinchi sug'urta hodisasi bo'yicha sug'urta to'voni to'langandan keyin summani 90 (to'qson) kalendar kundan ortiq muddatga kechiktirish (bu davrga birinchi sug'urta hodisasida hisobga olinadigan 90 (to'qson) kunlik davr qo'shilmaydi). Bunda, kredit "qoniqarsiz" deb e'tirof etiladi;

d) Qarz oluvchining bankrotligi yoki to'lovga layoqatsizligi.

3.1.2. Kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh)ning yo'qotilishi yoki shikastlanishi – Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga yoki Naf oluvchiga mazkur sug'urta shartnomasiga binoan Qarz oluvchi va Naf oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasi asosida xarid qilingan (sug'urtalangan) mulk (uskuna, dastgoh) bo'yicha o'g'irlik sodir etilishi, yong'in, portlash, buyumlarning zarbasi, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari va tabiiy ofatlar (bo'ron, dovul, jala, quyishi, yashin urishi, sel hodisalari) natijasida yuz bergan jismoniy yo'qotilishidan yoki shikastlanishidan bevosita zararlarni qoplab beradi.

3.2. Qarz oluvchining olgan kreditini qaytara olmaslik javobgarligini sug'urta qilish

3.2.1. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urtalovchi quyidagi holatlarda Sug'urta qildiruvchining yuzaga kelgan zararlari bo'yicha javobgarlik olib bormaydi:

- naf oluvchi va/yoki sug'urtalanuvchining sug'urta hodisasini keltirib chiqarishga qaratilgan qasddan qilgan harakatlari (kredit olishdagi tovlamachilik, noqonuniy tadbirkorlik, o'g'irlik, poraxo'rlik, firibgarlik, hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiste'mol qilish, yolg'on, soxta bankrotlik).

3.2.2. Sug'urtalovchi quyidagi holatlarda sug'urta qildiruvchiga/naf oluvchiga sug'urta tovonini to'lamaslik huquqiga ega:

- mazkur sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda naf oluvchi sug'urtalovchi bilan kelishmasdan, uning yozma roziligini olmasdan kreditni (qarzni) qaytarish grafiklarini (to'lashning oxirgi sanasi, summasi) o'zgartirsa, unga o'zgartirish kiritsa yoki boshqa shartlariga qo'shimcha yoki o'zgartirishlar kiritsa hamda uskuna-dastgohlarni yetkazib berish bilan bog'liq firibgarlik va shu kabi holatlar;

- bank (qarz beruvchi) kredit shartnomasi shartlarini bajarmasa, shuningdek qarz oluvchida kreditni qaytarish imkoniyati bo'la turib, bank tomonidan qarzni kredit shartnomasida ko'rsatib o'tilgan vaqtda va miqdorda undirish (talabnoma berish) choralari ko'rilmagan bo'lsa.

3.2.3. Sug'urta quyidagilarga nisbatan tadbir etilmaydi:

- kredit shartnomasi asosida hisoblangan har qanday kreditdan foydalanganlik uchun qarz oluvchining kredit shartnomasi shartlarini bajarmaganligi uchun hisoblangan penya, jarima va boshqa pul mablag'lari;

- sug'urta qildiruvchining (qarz oluvchining) sudda o'z huquqlarini himoya qilish bilan bog'liq xarajatlari, shu jumladan sud xarajatlari;

- sug'urta qildiruvchining (qarz oluvchining)ning kredit summasini qaytarishda adashib boshqa hisob raqamlarga o'tkazishi yoki shu bilan bog'liq noto'g'ri amalga oshirilgan o'tkazmalardan ko'rilgan zararlar.

3.3. Kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh)ning yo'qotilishi yoki shikastlanishi.

3.3.1. Agar quyidagi hodisalar natijasida yuz bersa, u sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

- kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh) bilan bog'liq Sug'urta qildiruvchi va/yoki boshqa shaxslarning sug'urta hodisasining yuzaga kelishiga qaratilgan qasddan qilgan harakatlari, ularning o'z fuqarolik burchini bajarishi yoxud o'zining va uchinchi shaxslarning hayotini, sog'lig'ini, sha'ni va qadr-qimmatini himoyalash bilan bog'liq harakatlar bundan mustasno;

- kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh)ga istalgan shakldagi alkogolli, giyohvandlik yoki toksik mastligi holatida yoki reaksiya tezligini va diqqatini pasaytiruvchi dori preparatlarining ta'sirida bo'lgan qasddan qilingan harakatlar oqibatida zarar yetsa;

- qasddan qilingan harakatlar oqibatida olovdan va portlashdan xavfli moddalarni va buyumlarni saqlash qoidalarini buzishi;

- kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkning ma'naviy eskirishi, eroziya, korroziya va quyqa hosil bo'lishi shikastlanishi.

3.3.2. Quyidagilar uchun sug'urta to'voni to'lanmaydi:

- tashqi omillar sabab bo'lmagan ichki buzilishlar uchun;

- kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkdagi jihoz-uskunalarining o'g'irlanishi, nobud bo'lishi yoki shikastlanishi uchun, agar ushbu qo'shimcha jihoz-uskunalar sug'urta shartnomasining jadvalida tegishli pozitsiya bo'yicha maxsus ko'rsatilgan bo'lmasa;

- kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkda o'g'irlik sodir etilishi, uning uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari oqibatida yo'q qilinishi yoki shikastlanishi uchun, agar vakolatli organlarga ariza berilmagan bo'lsa, shuningdek agar ushbu holat vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanmagan bo'lsa;

- sug'urtalangan kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk davlat organlarining qaroriga ko'ra olib qo'yilishi, musodara, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo'q qilinishi oqibatida yuz bergan zararlar;

- sug'urtalangan kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkni qarovsiz (eshiklarni ochiq qoldirish, muxrlarning buzilishi) qoldirish oqibatida zarar yetsa.

3.4. Umumiy istisnolar.

3.4.1. Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) sug'urta tovonini to'lashni rad etishga haqlidir, agar:

- kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk Sug'urtalovchi bilan yozma kelishuvsiz lizingga, ijaraga yoki garovga berilgan bo'lsa, egalik huquqi o'zgarsa;

- Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) mazkur shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarni bajarmagan bo'lsa;

- hodisa to'g'risidagi arizada Sug'urta qildiruvchi yoki uning vakili zararning sabablari va miqdori to'g'risida yolg'on ma'lumot ko'rsatgan bo'lsa, shuningdek, agar Sug'urta qildiruvchi yoki uning vakili hodisaning holatlarini yoki zararning miqdorini tasdiqlash uchun qalbakilashtirilgan hujjatlarni ko'rsatsa;

- Sug'urta qildiruvchi yoki uning vakili zararning sabablari va miqdorini aniqlash uchun kerakli hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa.

3.4.2. Agar hodisa quyidagilar oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini va sug'urta puli summasini to'lashdan ozod etiladi:

- kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkdan tajriba o'tkazish maqsadida yoki sinovlarda ishtirok etish uchun foydalanish;

- yadroviy portlash, radiatsiya yoki radioaktiv tarqalish ta'sir etishi;

- harbiy harakatlar, manevrlar yoki boshqa harbiy chora-tadbirlar.

4. SUG'URTA PULI, SUG'URTA QIYMATI VA SUG'URTA MUKOFOTI

4.1. Har bir Qarz oluvchi bo'yicha sug'urta summasi Bank tomonidan taqdim etilgan va muayyan Sug'urta polisining ajralmas qismi bo'lgan Ariza-anketada ko'rsatilgan ma'lumotlar va axborotlar asosida belgilanadi.

4.2. Shartnomada barcha hisob-kitoblar O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi Sug'urta mukofoti Sug'urtalovchi va Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi bilan kelishilgan miqdorda to'lanadi. Sug'urta mukofotining miqdori Sug'urta summasiga nisbatan yillik 01 foizdan kam 1 foizdan ko'p belgilanishi mumkin emas.

4.3. Har bir alohida sug'urta polisi bo'yicha sug'urta summasi Kredit shartnomasi bo'yicha kredit summasining 125 (bir yuz yigirma besh) foizidan ko'p bo'lmagan summani tashkil qiladi.

4.4. Sug'urta qildiruvchi/Qarz oluvchi Ariza-anketani to'liq hajmda taqdim etgandan so'ng Sug'urta mukofoti 1 (bir) kun ichida to'lanishi kerak. Mablag'lar Sug'urtalovchining bank hisobvarag'iga to'liq kelib tushgan kun sug'urta mukofoti to'langan kun hisoblanadi. Sug'urta shartnomasi Yagona tizimda ro'yxatdan o'tkazilganidan va sug'urta mukofoti to'langanligi sug'urtalovchi tomonidan elektron tarzda tasdiqlanganidan so'ng sug'urta polisi Yagona tizim orqali avtomatik tarzda rasmiylashtiriladi.

5. SHARTNOMANING AMAL QILISHI VA BEKOR BO'LISHI

5.1. Ushbu Shartnoma nomuayyan muddatga tuzilgan. Shartnoma Tomonlarning maxsus vakolatga ega bo'lgan shaxslari imzolagan kundan kuchga kiradi. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha javobgarligi sug'urta mukofoti (yoki uning birinchi qismi) Sug'urtalovchi bank hisob raqamiga kelib tushgan sanadan keyingi kunning 00.00 soatidan e'tiboran kuchga kiradi.

5.2. Sug'urta Shartnoma/Polisi quyidagi hollarda tugatiladi:

5.2.1. Sug'urtalovchining javobgarlik muddati tugaganda;

5.2.2. Sug'urtalovchi tomonidan Shartnoma/Polis bo'yicha majburiyatlarning to'liq hajmda bajarilganda;

5.2.3. Shartnoma/Polis bekor qilingan (muddatidan ilgari tugatilgan) taqdirda:

a) Sug'urta qildiruvchining yozma arizasiga binoan;

b) Sug'urta qildiruvchi tomonidan Shartnoma/Polis bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi tufayli;

d) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

5.3. Sug'urta Shartnoma/Polisi Sug'urta qildiruvchi tomonidan muddatidan oldin bekor qilingan hamda kredit shartnomasi bo'yicha barcha majburiyatlar Qarz oluvchi tomonidan muddatidan oldin bajarilgan taqdirda sug'urta mukofoti sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda qolgan mablag'ni hamda Sug'urtalovchi tomonidan qilingan xarajatlar uchun 50 (ellik) foizi chegirib qolingan holda Sug'urta qildiruvchiga qaytarib beriladi (agar sug'urta Polisining amal qilish vaqtida sug'urta tovonini to'lovi amalga oshirilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti qaytarib berilmaydi).

5.5. Shartnoma/Polisni bekor qilish niyatlari haqida agar boshqa holatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi bir-birlarini sug'urta Shartnoma/Polisi tugatilishi kutilayotgan sanadan kamida 15 (o'n besh) kalendar kuni avval yozma ravishda ogohlantirishlari shart. Sug'urta Shartnoma/Polisi bildirishnomada Shartnoma/Polisning amal qilishi tugatiladigan kun sifatida ko'rsatilgan kunning 00.00 soatidan e'tiboran tugatilgan hisoblanadi.

5.6. Sug'urta Ariza-anketa rasmiylashtirilgan/tuzilgan vaqtdan e'tiboran, O'zbekiston Respublikasining amaldagi

fuqarolik qonunchiligida ko'zda tutilgan asoslarda hamda quyida keltirilgan hollarda haqiqiy emas, deb topilishi mumkin:

- Ariza-anketada ko'rsatilgan sug'urta mukofoti belgilangan vaqtda to'lanmasa;
- Ariza-anketa sug'urta hodisasi yuz berganidan keyin rasmiylashtirilgan/tuzilgan bo'lsa;
- Ariza-anketada keltirilgan sug'urtalangan mol-mulk jinoiy yo'l bilan topilgan, xatlangan, hibsdan yoki sud qarori asosida musodara etilgan bo'lsa;
- Sud Shartnoma/Polisi haqiqiy emas deb topish to'g'risida qaror qabul qilgan bo'lsa.

5.7. Sug'urta Shartnoma/Polisi haqiqiy emas deb topilgan bo'lsa, sug'urta mukofoti Sug'urta qildiruvchiga Sug'urtalovchi tomonidan ishni olib borishga ketgan xarajatlarni chegirib qolingan holda qaytariladi, Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchiga to'langan sug'urta to'voni esa, bir oy muddat ichida Sug'urtalovchiga to'liq hajmda qaytarilishi lozim.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Sug'urta qildiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1. Sug'urta shartnomasining butun amal qilishi davomida Sug'urtalovchidan sug'urta qilish masalalari bo'yicha maslahatlar olish.

6.1.2. Sug'urta hodisasi yuzaga kelganda Sug'urtalovchidan belgilangan tartibda sug'urta tovonini olish.

6.1.3. kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkdagi qo'shimcha jihoz-uskunalarini qo'shimcha sug'urta qilishni amalga oshirish.

6.1.4. Sug'urtalovchi/Naf oluvchi bilan kelishuvga binoan, sug'urta shartnomasiga qo'shimcha bitimni imzolash yo'li bilan o'zgartirishlarni va/yoki qo'shimchalarni kiritish.

6.1.5. Sug'urtalovchini/Naf oluvchini albatta xabardor qilgan holda sug'urta shartnomasini muddatidan ilgari bekor qilish.

6.2. Sug'urta qildiruvchi quyidagilarga majbur:

6.2.1. Sug'urtalovchi talab qilgan hujjatlarni, jumladan garov, kredit, mulkni sotib olish bo'yicha tegishli shartnomalarni taqdim etishi shart. Kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk xarid qilinganidan va rasmiylashtirilganidan so'ng Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) tomonidan kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkning garov shartnomasi nusxasi 5 (besh) kunlik muddatda Sug'urtalovchiga taqdim etilishi shart.

6.2.2. Sug'urta mukofotini sug'urta ariza-anketada belgilangan tartib va muddatlarda to'lash.

6.2.3. Sug'urtalovchiga sug'urtalash ob'ekti to'g'risida to'liq va haqqoniy axborotni berish.

6.2.4. Sug'urta polisining amal qilishi davrida Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi ularga ma'lum bo'lishi bilan darhol, lekin ko'pi bilan 5 bank kuni ichida, Sug'urtalovchiga sug'urta ob'ektiga tegishli bo'lgan barcha jiddiy o'zgarishlar to'g'risida, agar ushbu o'zgarishlar sug'urta qilish tavakkalchiligining ortishiga jiddiy ta'sir etishi mumkin bo'lsa, jumladan quyidagilar haqida xabar berishi shart:

- kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkni va (yoki) uning qo'shimcha jihoz-uskunalari va anjomlarini ishonchnoma yoki ijara (prokat) shartnomasi bo'yicha berish;

- kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkga bo'lgan mulk huquqining boshqa shaxsga o'tishi;

- arizada ko'rsatilgan mulkdan foydalanish maqsadlarining o'zgarishi;

- qo'shimcha jihoz-uskunalarini o'rnatish.

6.2.5. Sug'urta ob'ektini ko'zdan kechirish uchun imkoniyat berish.

6.2.6. kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkda o'g'irlik sodir etilgan holda Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi:

a) zudlik bilan, imkoni tug'ilishi bilan, lekin hodisa yuzaga kelishi paytidan ko'pi bilan 24 soat ichida, Sug'urtalovchiga yoki uning vakiliga hodisa joyini aniq ko'rsatgan holda bildirish. Bildirishdan keyin 72 (yetmish ikki) soat ichida Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchiga hodisaning sabablari va holatlari bayon etilgan xabarnomani yozma shaklda (telefon yoki boshqa shaklda) yuborishi lozim;

b) zudlik bilan yuz bergan voqea to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlariga xabar berish;

d) Sug'urtalovchiga tergov organlari tomonidan tasdiqlangan ushbu hodisa bo'yicha jinoiy ishning qo'zg'atilishi yoki to'xtatilishi to'g'risida, yoki ishni sudga jo'natish to'g'risidagi qarorlarining nusxalarini taqdim etish.

6.2.7. Kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkda avariya, portlash, yong'in, buyumlarning zarbasi, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari, tabiiy ofatlar natijasida nobud bo'lishi yoki shikastlanishi holatida:

a) Sug'urtalovchiga 6.2.6.(a) bandiga muvofiq tegishli xabar bildirish;

b) Zudlik bilan tegishli davlat organlariga yuz bergan hodisa to'g'risida xabar berish va albatta voqea joyida holat bo'yicha belgilangan tartibda bayonnoma yoki ma'muriy dalolatnoma tuzilishini talab qilish;

d) Sug'urtalovchiga shikastlangan kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkni ko'zdan kechirish uchun xabar berish, kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkning barcha shikastlangan qismlari materiallarining fotosuratlarini olish yoki video suratga olish, Sug'urtalovchi bilan kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkni ta'mirlash ishlarini bajarish boshlanishigacha o'zining keyingi harakatlarini kelishib olish;

e) Sug'urtalovchiga barcha ishlar, materiallar ro'yxati ko'rsatilgan ta'mirlashni bajarish uchun kalkulyatsiyalarning nusxalarini taqdim etish;

f) Sug'urtalovchiga tergov organlari tomonidan tasdiqlangan ushbu hodisa bo'yicha jinoiy ishning qo'zg'atilishi yoki to'xtatilishi to'g'risida, yoki ishni sudga jo'natish to'g'risidagi qarorlarining nusxalarini taqdim etish.

g) Kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkni ta'mirlashda yashirin nuqsonlar aniqlangan holda, ushbu nuqsonlar bartaraf etilishidan avval Sug'urtalovchini yozma tarzda ogohlantirish. Bu holda shikastlangan materiallarning fotosuratlari olinadi va qo'shimcha dalolatnoma tuziladi.

6.2.8. Sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasining amal qilishi davri mobaynida sug'urtalangan kredit hisobiga xarid

qilinayotgan mulkning holatini, shuningdek Sug'urta qildiruvchi tomonidan kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk to'g'risida bildirilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish imkonini berish.

6.2.9. Olgan kreditni Sug'urtalovchiga taqdim etilgan arizada va kredit shartnomasida ko'rsatilgan maqsadlargagina ishlatish;

6.3. Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:

6.3.1. Sug'urta shartnoma/polisining amal qilishi davrida sug'urtalangan kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkning holatini (3-ilova) va qiymatini, shuningdek Sug'urta qildiruvchi tomonidan kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk (uskuna, dastgoh) to'g'risida bildirilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish.

6.3.2. Sug'urta qildiruvchidan sug'urta hodisasi to'g'risidagi yozma xabarnomani kutmay, sug'urta hodisasi bilan yetkazilgan zararlarni ko'rib chiqishga va baholashga kirishish.

6.3.3. Sug'urta hodisasi yuzaga kelganda tavakkalchilikning darajasini tavsiflaydigan qo'shimcha hujjatlarni talab qilish.

6.3.4. Sug'urta hodisasi yuzaga kelganligi holatini va sabablarini tasdiqlovchi to'liq ma'lumot va kerakli hujjatlar olinishigacha, shuningdek hodisa yuzaga kelishi holati bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilishi holatida - vakolatli organlar tomonidan tegishli qaror qabul qilinishi paytigacha sug'urta tovonini to'lashni kechiktirish.

6.3.5. Agar u sug'urta tavakkalchiligining ortishiga olib keluvchi holatlar to'g'risida xabardor etilgan bo'lsa, o'zaro qo'shimcha bitimni imzolash orqali sug'urta shartnomasining shartlarini o'zgartirish yoki sug'urta shartnomasini bekor qilish.

6.4. Sug'urtalovchi quyidagilarga majbur:

6.4.1. Sug'urta polisini ushbu shartnomada belgilangan muddatda berish.

6.4.2. Barcha kerakli hujjatlar olinishidan va sug'urta hodisa yuzaga kelganligi holati e'tirof etilganidan (sug'urta hodisasi to'g'risidagi qarori) keyin 10 kunlik muddatda sug'urta tovonini to'lash.

6.4.3. Sug'urta qildiruvchi, Naf oluvchi bilan munosabatlarda maxfiylikni ta'minlash.

6.4.4. Sug'urta tovonini to'lashdan avval Naf oluvchini bu haqda yozma ogohlantirish.

6.5. Naf oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

6.5.1. Sug'urta tovonni summasidan o'z talablarini ustuvor tarzda, lekin Sug'urta qildiruvchining qarzi bo'yicha Naf oluvchining oldida qarzdorligi summasidan oshmagan holda qondirish.

6.6. Naf oluvchi quyidagilarga majbur:

6.6.1. Sug'urtalovchini kredit shartnomasining uzaytirilishi to'g'risida, shuningdek Sug'urta qildiruvchi tomonidan kreditning muddatidan ilgari qoplanishi to'g'risida xabardor etish.

7-BO'LIM. SUG'URTA DA'VOSINI KO'RIB CHIQISH VA SUG'URTA TOVONINI TO'LASH

7.1. Qarz oluvchining olgan kreditini qaytara olmaslik javobgarligini sug'urta qilish bo'yicha:

7.1.1. Shartnomaning kredit qaytmaslik tavakkalchiligi bo'yicha muayyan Qarz oluvchiga nisbatan yuzaga kelgan holatlarda, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi bunday voqea sodir bo'lgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida Sug'urtalovchini yozma ravishda xabardor qilishi shuningdek, Sug'urtalovchiga zararning fakti va miqdorini aniqlashga imkon beruvchi hujjatlarni taqdim etishi shart, shu jumladan:

a) muayyan Qarz oluvchiga berilgan sug'urta polisining nusxasi;

b) Kredit shartnomasi va to'lov grafigining nusxasi;

d) kredit berish uchun asos bo'lgan hujjatlar nusxalari (qarz olish uchun taqdim etilgan ariza, kredit mablag'laridan maqsadli foydalanilganligini tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalari);

e) olingan kreditni to'langan qismlari to'g'risidagi ma'lumotnoma nusxasi;

f) Kredit shartnomasi bo'yicha to'lov grafigiga muvofiq Qarz oluvchining hisobot oyining oxirgi sanasida kechiktirilgan to'lov summasi miqdori to'g'risidagi ma'lumotnoma nusxasi (Kredit shartnomasi bo'yicha batafsil yoritilgan holda asosiy qarzning qoldiq summasi va foizlar, neustoyka, penya, jarima,) Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Qarz oluvchidan, vakolatli organlar va tashkilotlardan sug'urta hodisasi bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni talab qilishga, shuningdek yetkazilgan zararning sabablari, holatlari va hajmini mustaqil ravishda aniqlashga haqli.

7.2. 3.1-bandning 3.1.1. kichik band a) qismida ko'rsatilgan holat yuz berganda – asosiy qarzi va foizlar bo'yicha kechiktirilgan summa miqdorida, shuningdek, hisobot oyining oxirgi sanasida Kredit shartnomasi bo'yicha to'lov jadvaliga muvofiq muddati o'tgan qarzdorlik uchun hisoblangan foizlar biroq har qanday holatda ham muddati o'tkazib yuborilgan summadan oshmaydigan summada sug'urta tovonini to'laydi.

7.3. 3.1-bandning 3.1.1. kichik band b) va d) qismida ko'rsatilgan holat yuz berganda – asosiy qarzning umumiy summasi miqdorida, shuningdek, muddati o'tkazib yuborilgan qarzi uchun hisoblangan foizlar, kreditning asosiy summasi va foizlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik uchun hisoblangan foizlar, ammo har qanday holatda ham sug'urta summasidan oshmaydigan miqdorda sug'urta tovonini to'laydi.

7.4. Kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishi tavakkalchiligi bo'yicha Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi yuz bergani o'ziga ma'lum bo'lganidan keyin bu haqda darhol (72 soat ichida) Sug'urtalovchini yoki uning vakilini xabardor qilishi shart. Ushbu majburiyatning bajarilmasligi Sug'urtalovchiga, agar sug'urtalovchi sug'urta hodisasi yuz berganini o'z vaqtida bilganligi, yoxud bu haqda sug'urtalovchida ma'lumotlar yo'qligi uning sug'urta tovonini to'lash majburiyatiga ta'sir etmasligi isbotlanmasa, sug'urta tovonini to'lashni rad etish huquqini beradi (O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 951-moddasi).

7.5. Hodisa to'g'risidagi arizada Sug'urta qildiruvchi quyidagilarni ko'rsatadi:

- hodisaning sanasi va tafsilotlari;
- hodisa yuzaga kelganda Sug'urta qildiruvchining amalga oshirgan harakatlari;
- shikastlangan mazkur kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkning boshqa sug'urta shartnomalari asosida sug'urtalanganligi yoki yo'qligi to'g'risida;
- uchinchi shaxslardan olingan zarar kompensatsiyasining miqdori.

7.6. Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

7.6.1. kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk yo'qotilganda:

- a) Sug'urta qildiruvchi tegishli organlarni (ichki ishlar va yong'in xavfsizligi organlari va hokazo) yuz bergan hodisa to'g'risida xabardor qilganligi va yuz bergan hodisa bo'yicha tergov (tekshiruv)ning borishi to'g'risida ma'lumotnoma;
- b) sug'urta polisi.

7.6.2. Kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulk shikastlanganda:

- a) tegishli organlarning (ichki ishlar va yong'in xavfsizligi organlari va hokazo) vakolatli vakillari tuzgan, hodisaning ishtirokchilari va holatlari ko'rsatilgan dalolatnomaning (qaror yoki ma'lumotnomaning) asl nusxasi;
- b) baholash faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan mustaqil baholash tashkilotining kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkni tiklash uchun zarur bo'lgan ishlarning ro'yxati ko'rsatilgan kalkulyatsiyasining nusxasi;
- d) sug'urta polisi.

7.7. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasining holatlariga bog'liq holda qo'shimcha ma'lumot va hujjatlarni (kredit hisobiga xarid qilinayotgan mulkning hujjatlari va hokazo) talab qilishga haqlidir.

7.8. Sug'urta qildiruvchining arizasi berilganidan keyin 3 kunlik muddatda Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchining ishtirokida shikastlangan mulkni ko'zdan kechirish dalolatnomasi tuziladi.

7.9. Sug'urta to'voni Sug'urtalovchi tomonidan u barcha kerakli hujjatlar olganidan va sug'urta hodisasi e'tirof etilganidan keyin 5 (besh) bank ish kuni ichida to'lanadi.

7.10. Sug'urta polisi bo'yicha sug'urta summasidan kamroq sug'urta to'voni to'langan holda shartnoma o'z muddatining oxirigacha, shartnomada belgilangan sug'urta puli summasi va to'langan sug'urta to'voni o'rtasidagi farq miqdorida o'z kuchini saqlab qoladi.

7.11. Sug'urta qildiruvchi, agar zarar to'liq qoplangan bo'lsa yoki sug'urta to'voni sudning qaroriga ko'ra zarar yetkazilishiga aybdor bo'lgan shaxs tomonidan amalga oshirilsa, sug'urta to'vonini olish huquqidan mahrum bo'ladi.

7.12. Agar Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi aybdor yoki uchinchi shaxslardan zararni qoplash bo'yicha summani olsa, Sug'urtalovchi faqat sug'urtalash shartlariga ko'ra to'lanishi lozim bo'lgan summa va aybdor yoki uchinchi shaxslardan olingan summa orasidagi farqni to'laydi.

7.13. Sug'urtalovchining sug'urta to'vonini yoki sug'urta pulini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori sug'urta qildiruvchiga (naf oluvchiga) ular sug'urta to'vonini yoki sug'urta pulini to'lashni so'rab murojaat etganlaridan keyin 15 (o'n besh) bank ish kunidan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.

7.14. Sug'urtalovchining sug'urta to'vonini yoki sug'urta puli summasini to'lashni rad etish qarori ustidan, unga sudda da'vo bildirish yo'li bilan shikoyat qilinishi mumkin.

7.15. Sug'urta to'vonini to'lash:

7.15.1. Sug'urta qildiruvchiga sug'urta to'voni Naf oluvchini yozma tarzda xabardor etilgan holda amalga oshiriladi. Naf oluvchi sug'urta to'voni summasidan o'z talablarini ustuvor qondirish huquqiga ega. Bunda Naf oluvchi Sug'urta qildiruvchining Naf oluvchi oldida kredit bo'yicha qarzdorligidan oshmagan miqdorda sug'urta to'vonini olish huquqiga ega, sug'urta to'vonining qolgan qismi esa Sug'urta qildiruvchining zararlarini doirasida uning xarajatlarini qoplash uchun yo'naltiriladi.

7.15.2. Sug'urta to'voni arizada ko'rsatilgan Naf oluvchi/Sug'urta qildiruvchining bank hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

7.16. Sug'urta to'vonini to'lagan Sug'urtalovchiga Sug'urta qildiruvchining (Naf oluvchining) sug'urtalash natijasida qoplab beriladigan zararlar uchun javobgar shaxsga nisbatan talab qilish huquqi uning to'lagan summasi doirasida o'tadi. Lekin Shartnomaning qasddan zarar yetkazgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tishini istisno etuvchi shartlari haqiqiy bo'lmaydi.

7.17. Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi Sug'urtalovchiga Sug'urtalovchi tomonidan unga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni va isbotlarni berishi va unga barcha kerakli ma'lumotlarni taqdim etishi shart. Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi)ga to'langan sug'urta qoplamasi aybdor shaxsdan sud organlari yoki aybdor shaxsga tegishli elektron hisob raqam (plastik karta)lardan ogohlantirishsiz (akseptsiz tartibda) undirish choralarni ko'rishga haqli.

7.18. Agar Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi o'zining Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zararlar uchun javobgar bo'lgan shaxsga nisbatan talab qilish huquqidan voz kechgan bo'lsa yoki Sug'urta qildiruvchining yoki Naf oluvchining aybi bilan ushbu huquqni amalga oshirish mumkin bo'lmay qolsa, Sug'urtalovchi sug'urta to'vonini to'lashdan to'liq yoki tegishli qismida ozod etiladi va ortiqcha to'langan to'von summasini qaytarilishini talab qilishga haqli bo'ladi.

8-BO'LIM. SUBROGATSIYA

8.1. To'liq yoki qisman sug'urta to'vonini to'lagan Sug'urtalovchiga shu summa doirasida Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchining yetkazilgan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan regress talabi huquqi o'tadi.

8.2. Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchi sug'urta to'vonini olgandan so'ng Sug'urtalovchiga regress talabi huquqini amalga oshirish uchun barcha zaruriy hujjatlarni berishi va barcha choralarni ko'rish shart. Sug'urtalovchi

tomonidan Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi)ga to'langan sug'urta qoplamasi aybdor shaxsdan sud organlari yoki aybdor shaxsga tegishli elektron hisob raqam (plastik karta)lardan ogohlantirishsiz (akseptsiz tartibda) undirish choralarini ko'rishga haqli.

8.3. Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchi sug'urta hodisasi yuz berishiga aybdor shaxsga nisbatan da'vodan yoki unga qo'yilgan talablarni amalga oshiruvchi huquqdan voz kechsa, shuningdek, Sug'urtalovchiga regress talablarni amalga oshirish uchun zaruriy hujjatlarni berishdan bosh tortsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini butunlay yoki ma'lum bir qismini to'lab berishdan ozod qilinadi va ortiqcha to'langan sug'urta tovonini qaytarib berilishini talab qilishga haqli.

9. KORRUPSIYA VA JFODLTMVOQQTGA QARSHI KURASHISH HAMDA BOSHQA SHARTLAR

9.1. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilalari harakatlarga ta'sir qilishi yoki ushbu shaxslarning har qanday nomaqbul imtiyozlar yoki boshqa imtiyozlarni olish uchun to'lovlarni to'lamaydilar, to'lashni taklif qilmaydilar, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita biron bir pul mablag'lari yoki qiymatlarni to'lashga yo'l qo'ymaydilar;

9.2. Ushbu shartnoma bo'yicha tomonlar o'z majburiyatlarini bajarayotganda, afillangan shaxslari, xodimlari yoki vositachilari amalda qonunchilikda pora berish-olish, shuningdek, amaldagi qonunchilik va xalqaro huquq talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha harakatlar qilmaydi;

9.3. Ushbu shartnoma taraflarning har biri boshqa tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishni rad etadi, jumladan pul mablag'lari, sovg'alar, bepul ishlarni (xizmatlarni) bajarish va boshqalar taqiqlanadi. Shu bilan birga, xodimni ma'lum bir qaramlikka olib kelishi va buning bajarilishini ta'minlash, xodim rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatni amalga oshirishi ta'qiqlanadi;

9.4. Agar biron-bir tomon korrupsiyaga qarshi kurash shartlarining buzilishi sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb bilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma yoki og'zaki, shu jumladan, ishonch telefoni orqali xabardor qilish majburiyatini oladi;

9.5. Tomonlar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar tomonlar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.6. O'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

9.7. sug'urta tovonini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan summaning 0,1 foizi miqdorida, lekin ushbu Shartnoma bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. Penyalarni to'lash Sug'urtalovchini sug'urta tovonini to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

9.8. Sug'urtalovchiga to'lanishi lozim bo'lgan mablag'larni to'lash muddatlariga rioya etilmagan taqdirda, Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchining talabiga ko'ra, kechiktirilgan har bir kun uchun 0,1 foiz miqdorida qarz summasiga penya to'laydi, lekin to'lanadigan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda to'laydi.

9.9. Agar ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasliklari bartaraf etib bo'lmas holatlar (fors-major) tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi. Fors-major holatlari ta'sir qilgan tomon boshqa tomonni ushbu holatlarning yuzaga kelishi va mumkin bo'lgan davomiyligi to'g'risida darhol xabardor qilishi shart. Bunday holda, Tomonlar belgilangan tartibda mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilgan va bajarilmagan qismlari bo'yicha yakuniy to'lovni amalga oshiradilar.

9.10. Tomonlar fors-major holatlari davrida ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgar emaslar.

9.11. Fors-major holatlariga quyidagilar kiradi: tabiiy hodisalar (zilzilalar, ko'chkilar, bo'ronlar, qurg'oqchilik va shartnomada ko'rsatilmagan boshqa tabiiy ofatlar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy harakatlar (harbiy harakatlar) natijasida yuzaga kelgan favqulodda, oldini olish mumkin bo'lmagan va kutilmagan holatlar; blokadalar, davlat tashkilotlari va davlatlar o'rtasidagi cheklovchi va taqiqlovchi choralar, shuningdek hukumat qarorlari va boshqalar), agar bu holatlar Shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir qilgan bo'lsa).

9.12. Fors-major holatlari yuzaga kelganda, tomonlarning majburiyatlarini bajarish muddati fors-major holatlari davom etayotgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

9.13. Ushbu Shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritish tomonlarning kelishuvi bilan amalga oshiriladi. Ushbu Shartnoma shartlarini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuv yozma ravishda tuziladi.

9.14. Ushbu shartnoma shartlari o'zgartirish taqdirda, majburiyatlar ushbu shartnomani o'zgartirish to'g'risidagi yozma shartnomada ko'rsatilgan kundan boshlab o'zgartirilgan deb hisoblanadi.

9.15. Ushbu shartnoma bo'yicha huquq va majburiyatlarni uchinchi shaxslarga topshirishga tomonlarning yozma roziligi yo'l qo'yilmaydi.

9.16. Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan barcha holatlarda O'zbekiston Respublikasining fuqarolik kodeksi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida", "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunlar va O'zbekiston Respublikasida amaldagi boshqa qonun hujjatlariga amal qiladilar.

9.17. Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi maxfiylik uchun javobgardir va ushbu shartnoma, ilova va ushbu shartnoma bilan bog'liq boshqa hujjatlarning mazmunini tegishli tomonning yozma ruxsatisiz uchinchi tomonga oshkor qilmaydi.

9.18. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan barcha nizolar va kelishmovchiliklar muzokara yo'li bilan, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa sud tartibida hal qilinadi.

9.19. Shartnoma tomonlari, shuningdek har bir tomonning vakillari yoki xodimlari ushbu shartnomaga tegishli bo'lgan firma yoki maxfiy ma'lumotlarni har bir tomonning oldindan yozma roziligisiz oshkor qilmaydi.

9.20. Mazkur Bosh shartnoma 2 (ikki) nusxada tuzilgan bo'lib, ular Sug'urtalovchida va Naf oluvchida bir nusxada saqlanadi va bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi hamda 2025-yil 03.07 sanadan kuchga kiradi.

10. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

SUG'URTALOVCHI: "TRUST-INSURANCE" AJ

Manzil: O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent sh., Mironshoh 6-tor ko'ch., 18 uy
tel: +71-255 64 64
h/r: 2021 6000 1051 8759 5034
ATB "Aloqabank"
MΦO: 00401 STIR: 307 184 423

Sug'urtalovchi nomidan:

Bosh direktor

J.Xolmirzaev



NAF OLUVCHI: AT «ALOQABANK»

Manzil: O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent sh., Muminova ko'ch., 4/1
tel: +71-232-83-53
h/r: 29802000800000401113
ATB "Aloqabank"
MΦO: 00401 STIR: 200829053
OKЭД: 64190

Naf oluvchi nomidan:

Boshqaruv raisi

K. Irisbekova

